

**FIRMA NOMLARI TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN
JAVOBGARLIK MASALALARI XALQARO SHARTNOMALARDA VA XORIJ
TAJRIBASIDA**

Allayarova Maftuna Almardonovna

*Toshkent davlat yuridik
universiteti magistri*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada firma nomlariga nisbatan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikning xalqaro shartnomalarda aks etishi va unga mamlakatimiz qonunchiligini moslashtirish masalalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi o’rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *firma nomi, mutlaq huquqlar, TRIPS, javobgarlik, sud.*

KIRISH

Huquqiy javobgarlik - bu huquq subyektining huquqiy normalarda nazarda tutilgan huquqbazarlik natijasidagi oqibatlarning yuzaga kelishidir.

Shunday qilib, huquqiy javobgarlik deganda huquqbuzarga shaxsiy, tashkiliy yoki mulkiy xarakterdagi mas’uliyat shaklida ifodalangan huquqiy normaning sanksiyasida nazarda tutilgan davlat majburlash choralarini qo’llash deb tushunish mumkin.

Intellektual mulk sohasidagi qoidabuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik intellektual faoliyat natijalaridan va yuridik shaxsni individuallashtirish vositalaridan, mahsulotlarni, ishlarni, xizmatlarni individuallashtirish vositalaridan noqonuniy foydalangan holda tovarlarni muomalaga kiritishda yuzaga keladigan adolatsiz raqobat holatida kelib chiqadi.

Firma nomiga bo‘lgan huquqlarning buzilishi boshqa raqobatchi tadbirkorlarning o‘xhash yoki aynan shunday belgilarni o‘z tadbirkorlik faoliyatlarida va ichki hujjatlarida foydalanishi natijasida, shu bilan bir qatorda bir tadbirkor tomonidan ikkinchi bir tadbirkorning firma nomiga o‘xhash bo‘lgan tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish bilan buzilishi mumkin.

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy bilishning analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, statistik ma’lumotlar tahlilidan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini umumiyligi mantiqiy usullar (tahlil va sintez, dialektik, umumlashtirish, analogiya, mavhumdan konkretga va konkretdan mavhumga o’tish), empirik tadqiqot usullari (taqqoslash, guruhlarga taqsimlash) va alohida ilmiy usullar (formal-yuridik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy) hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-sodnidan Qarorida 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 7-bandida O‘zbekiston intellektual mulk tizimini TRIPS bitimi normalari va tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish nazarda tutilgan .

TRIPS bitimi JST ta’sis hujjatlaridan biri bo‘lib, 1994-yil 15-aprelda Marokashda

o‘tkazilgan Urugvay muzokaralari yakuni bo‘yicha qabul qilinib, 1995-yil 1-yanvardan kuchga kirgan hamda JSTga a’zo davlatlar tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish bo‘yicha minimal talablarni belgilovchi bitim hisoblanadi . Hozirgi kunga qadar ushbu bitimga JSTning 160 nafar a’zo davlatlarining barchasi qo‘shilgan.

TRIPS bitimi muqaddima, 73 ta moddani o‘z ichiga oluvchi 13 ta bo‘lim va 7 qismdan iborat bo‘lib, JSTga a’zo davlatlarda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, ularga bo‘lgan huquqlarni sud va boshqa vakolatli organlar orqali himoya qilish, intellektual mulkni instrument sifatida amalga oshiriladigan nohalol raqobatni oldini olish, intelleklual mulkni davlatlar bojxona hududlarida himoya qilinishini ta’minalash hamda intellektual mulk sohasidagi qonunbuzarliklarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo’llash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Bitimning 46-moddasida kontrafakt mahsulotlar hamda ularni ishlab chiqarilishida foydalanilgan materiallar va uskunalarini olib qo‘yish, agar konstitutsiyaviy talablarga zid bo‘lmasa, yo‘q qilish choralarini belgilash nazarda tutilgan.

Shu bilan bir qatorda, ushbu moddada tovar belgisidan noqonuniy foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rovida noqonuniy qo‘llanilgan tovar belgisini oddiy olib tashlash yetarli emasligi, ya’ni kontrafakt mahsulotlarni olib qo‘yish yoki yo‘q qilish hamda bu turdagи tovarlarni ishlab chiqarilishida asosiy o‘rinda foydalanilgan huquqbazarlik ashyolarini olib qo‘yish lozimligi qayd etilgan.

Intellektual mulk huquqini buzish natijasida ishlab chiqarilgan, tayyorlangan yoki boshqacha tarzda realizatsiya qilingan tovarlarni yo‘q qilish tartibi Fuqarolik kodeksining 1107 va 1111-moddalariga muvofiq faqatgina tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joy nomi egasining huquqlarini himoya qilish usuli sifatida hamda tegishli kontrafakt mahsulotlarda noqonuniy foydalanilgan tovar belgisini yoki tovar kelib chiqqan joy nomini olib tashlashning imkonи bo‘lmasagina qo‘llanishi nazarda tutilgan.

Tahlillar

TRIPS bitimining intellektual mulk huquqlarini ta’minalash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha oxirgi bo‘limi “Jinoiy tartib-taomillar”ga bag‘ishlangan. Ushbu bitimning 61-moddasiga muvofiq a’zo davlatlar o‘zlarining qonunchiligidagi, agar tovar belgisi yoki mualliflik huquqining buzilishi qasddan tijorat maqsadlarida sodir etilgan bo‘lsa, bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llash asoslarini aniq belgilab qo‘yish lozimligi belgilangan.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida faqat muallif yoki ixtirochining shaxsiy nomulkiy huquqlari buzilgan taqdirda jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llanishi belgilangan bo‘lib, intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarini misol uchun individuallashtirish vositalarini qasddan tijorat maqsadlarida buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan .

Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat kodeksida intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni buzilishiga oid 3 ta modda (198, 199, 22-moddalar) mavjud , O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mazkur yo‘nalishda tegishli moddalar mavjud emas.

Finlandiyaning ‘Firma nomlari tog‘risida’gi qonuning 23-moddasida javobgarlik va kompensatsiya masalalari yoritilgan bo‘lib, tadbirkorlik faoliyat natijasida qasddan yoki ehtiyoitsizlik bilan boshqa shaxsning firma nomiga bo‘lgan huquqi buzgan tadbirkor zarar ko‘rgan tomonga firma nomidan foydalanganlik uchun oqilona kompensatsiya to‘lashi va

buzilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashi shart. Agar ehtiyotsizlik ahamiyatsiz bo‘lsa, zararni qoplash to‘g‘risida tomonlar o‘zari kelishib olishlari mumkin. Madomiki, ushbu harakat qasddan sodir etilgan bo‘lsa huquqbuzar firma nomidan foydalanganlik uchun oqilona kompensatsiya to‘lashi shart.

Finlandiya patent idorasi yoki Finlandiya arbitraj sudining afzalliklari. Firma nomi faqat Finlandiya patent va ro‘yxatga olish idorasiga qarori bilan kompaniya nomidan foydalilmaganligi sababli bekor qilinishi mumkin. Agar bekor qilish uchun boshqa asoslar bo‘lsa, jumladan, kompaniya nomi noqonuniy bo‘lsa bekor qilish uchun Finlandiya arbitraj sudiga murojaat qilish mumkin.

Parallel firma nomlari. Korxonalar turli tillarda parallel kompaniya nomlariga ega bo‘lishi mumkin. Agar turli xil versiyalarning mazmuni bir-biriga mos keladigan bo‘lsa, siz kompaniya nomini ikki yoki undan ortiq tillarda ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin. Parallel firma nomi – bu haqiqiy firma nomining boshqa tildagi ko‘rinishi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.10.2019-yildagi 856-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Apellatsiya Kengashi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida qaroriga intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sudga murojaat qilishdan oldin bunday ishlarning majburiy tartibda soha bo‘yicha vakolatli organ (Adliya vazirligining Apellyatsiya kengashi) tomonidan ko‘rib chiqilishi mazmunidagi o‘zgartirishlarni kiritish. Nizoni sudgacha majburiy ravishda vakolatli organ tarafdan ko‘rib chiqilishi har ikkala taraf uchun ham mablag‘ jihatdan ham vaqt jihatdan foydali bo‘ladi.

Ikkinchidan, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuniga mazkur qonun eski tahriri 13-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) tomonidan avval fuqarolik muomalasiga kiritilgan tovarga nisbatan belgi bilan aynan o‘xhash yoki adashtirib yuborish darajasida o‘xhash bo‘lgan tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishni insofsiz raqobat sifatida tan olinishi mazmunidagi normani qayta tiklash kerak.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida faqat muallif yoki ixtirochining shaxsiy nomulkiy huquqlari buzilgan taqdirda jinoiy javobgarlik choralar qo‘llanilishi belgilangan bo‘lib, intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarini misol uchun individuallashtirish vositalarini qasddan tijorat maqsadlarida buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilishini kerak.

REFERENCES:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5987120#-5988020>

2.Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf

3.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/acts/-111453>

4.Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>

5. <https://www.prh.fi/en/kaupparekisteri/yritystennimet/nimiohjeet.html>
6. Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights.
https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf